

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY  
OMILLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11582760>

*O'zMU Jizzax filiali Psixologiya fakulteti o'qituvchisi*

**Samatova Nigora Davlataliyevna**

**Namuratova Madinabonu Ulug'bekovna**

*O'zMU Jizzax filiali Psixologiya fakulteti Oila psixologiyasi yo'nalishi*

*2-bosqich talabasi*

**Annatsiya:** *Maktabgacha yoshdagi bolalar xotira mahsuldorligining rivojlanishi maktabga tayyorgarligining asosi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasining o'ziga xosligi, hamda bolalar xotirasini rivojlantirish usullari to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borgan psixolog olimlarning metodikalaridan misollar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha, mnemonika, psixik jarayonlar, bolalik, esda olib qolish, tajriba, metodika, pedagog, esda saqlash.*

**Аннотация:** *Развитие продуктивности памяти детей дошкольного возраста является основой готовности к школе. Приводятся примеры методик психологов, проводивших научные исследования об уникальности памяти детей дошкольного возраста, и методов развития памяти детей.*

**Ключевые слова:** *Дошкольный возраст, мнемотехника, психические процессы, детство, запоминание, опыт, методика, педагог, запоминание.*

**Annotation:** *The development of preschool children's memory productivity is the basis of school readiness. Examples of the methods of psychologists who conducted scientific research on the uniqueness of preschool children's memory and methods of developing children's memory are given.*

**Key words:** *Preschool, mnemonics, mental processes, childhood, remembering, experience, methodology, pedagogue, remembering.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda: "Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi". Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Maktabgacha talim tashkilotida tarbiyalangan bola bilan maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormagan bolani tafovutida, ularning fikrlash darajasi o'rtasida katta farq borligini sezish qiyin emas. "Shuning uchun ham biz maktabgacha

ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi", deya ta'kidladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar xotira mahsuldorligining rivojlanishi kattalardan so'rab bilib olish, eshitish orqali ham o'z xotiralarini boyitadilar. Ilk bolalik davridagi bolalarda xotiraning barcha jarayonlari ko'rina boshlaydi. Bugungi tezkor rivojlanayotgan va ma'lumotlar tig'izligi zamonida insonning bilish jarayonlari, ayniqsa, xotirasini rivojlantirish alohida e'tiborga molik masaladir. Xotirani kuchaytirish maktabgacha yosh davridan boshlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Aytishgan-ku yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh deb.

Hozirda Respublikamizning deyarli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixolog hodimlar bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish borasida qizg'in ishlar olib borilmoqda. Ammo bog'chada bolalar soni ko'p bo'lganligi, ba'zi bog'chalarda psixolog shtati yo'qligi bois, bolalar bilan har kuni ishlash biroq qiyin masalaga aylanadi. Shu boisdan maktab tarbiyachilari ham pedagog xodim sifatida bolalarning bilish jarayonlari rivojlanishi uchun o'z xissalarini qo'shsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bolalar xotirasini rivojlantirish uchun bir qator xotira rivojlantiruvchi metodikalardan foydalanishimiz mumkin. Ulardan biri sonlarni sanash metodikasi. Bunda 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar tanlab olinadi va ular juft qilib sanaladi. Masalan 1-10, 2-9,3-8, 4-7... sonlar shunday sanashda davom etilib boriladi,uzluksiz davom ettiriladi. Bu jarayon miya hujayralarining ham ishlash jarayonini kuchaytiradi, shu taqlid o'nliklar oshib boradi. Bu bolalarda tafakkurni ham rivojlantiradi.

Ikkinchi metodikamiz farqini top metodikasidir. Bunda bolalarga xonadagi yoki stol ustidagi buyumlarning o'rnini eslab qolish topshirig'i beriladi. So'ngra, ular boshqa xonaga o'tib turadilar, xonadagi ba'zi jihozlarning o'rne almashtiriladi, birortasi olib qo'yiladi. Xonaga bolalar chaqirilib ulardan qanday o'zgarish so'raladi. Bu bolalarda fazoviy xotirani yaxshilaydi.

Uchinchi mnemonika metodikamiz bu – so'zni o'zgartir metodikasi. Bu jarayonda bola yoki bolalar guruhiga bir nechta so'zlar aytiladi, bolalarga bu so'zlarning harflari o'zgartirilib, avvalgi so'zlar hamda yangi so'zlar juft qilib yoddan aytishlari so'raladi. Bu metodika bolalarning taqqoslash xotirasini rivojlantiradi, chet tilini tez o'zlashtirishga yordam beradi.

Unli – undosh metodi. Bu usulni bog'chadagi tayyorlov guruhi hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida olib borish zarur chunki ular harflarni tanishadi. Bu metod jarayonida guruhdan ikkita bola ajratib olinadi. Ularga teng miqdordagi unli va undosh harf bilan boshlangan so'zlar aytiladi. Birinchisi unli harfdan boshlanadigan so'zlarni, ikkinchisi undosh harfdan boshlanadigan so'zlarni ajratib olib yodlab qolishadi. Bu xotira jarayoni bilan birgalikda bolalarning savodxonlik darajasiga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Turli xil o'yinlar va mashqlar (rasmli, raqamli ,matnli) maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasini rivojlantirishda samarali usullar hisoblanadi. Chunki bolalarda

xotiraning yuqori darajada rivojlanishi keyingi aqliy rivojlanishi uchun poydevor bo'ldi. Xotirasi to'liq rivojlangan bolalarda boshqa qobiliyatlar ham rivojlanadi. Ular maktabga borgandan keyin yangi, katta hajmli ma'lumotlarni ham oson eslab qola oladilar. Yangi bilimlarni o'zlashtirishida hech qanday muammo bo'lmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil yakunlari va 2017- yil istiqbollari bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 16- yanvar, № 11.

2. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil. -T.: Noshir, 2010. – 356 b.

3. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Z.T.Nishanova va boshqalar. Toshkent. 2018 y.

6. Maktabgacha ta'lim bolalar psixologiyasi. Toshkent. 2010 y. 4. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Toshkent. 2014 y.

3. Nigora, S. va Munisa, O. K. (2023). SHAXSLARARO MULOQOTDA UCHRAYDIGAN QIYINCHILIKLAR. Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali , 327-330.

4. Nigora, S., Ilmira, Y., & Zulxumor, X. (2023). TORTINCHOQLIK VA UNING PSIXOLOGIK SABABLARI. Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali , 323-326.

5. Nigora, S., Go'zal, Q., & Shoxista, Z. (2023). O 'SMIR QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILANING ROLI. Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali , 330-333.

6. Davlataliyevna, S. N. (2022). Umumiy psixologiya va turli xil usullar amaliyotlar. Ilmiy impuls , 1 (5), 820-822.

7. Davlataliyevna, S. N. (2022). Psixologiya va uning tamoyillari. Ilmiy impuls , 1 (5), 823-826.

8. Samatova, N. va Namuratova, M. (2023). Psixologiyada shaxsiy muammosi. Kompyuter fanlari va muhandislik texnologiyalari , 1 (2), 408-413.

9. Samatova, N. va Subxiddinov, S. (2023). O'z-o'zini imidji va shaxsiy o'zini o'zi qadrlash muammosi. Kompyuter fanlari va muhandislik texnologiyalari , 1 (1), 435-437.

10. Samatova, N. va Abdurasulova, S. (2023). Pedagogik muloqotda psixologik aloqa va shaxslararo konflikt. Kompyuter fanlari va muhandislik texnologiyalari , 1 (1), 433-434.

11. Davlatalevna, S. N. (2022). Oiladagi salbiy muloqotning farzand psixologiyasiga ta'siri.

12. Hakimova, S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar oniga ta'siri. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolari va yechimlari.